


## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o‘rinlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 32 916,1 mlrd. so‘m bo‘lib, 2022-yil bilan taqqoslaganda 103,5 % ni tashkil qildi.

YAHM deflyator indeksi 2022-yil narxlariga nisbatan 105,6 % ni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMning shakllanishida Qoraqalpoğiston Respublikasining qo‘sghan hissasi 3,1 % ga yetdi.



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish  
hajmi va o‘sish sur’atlari**


	<i>Mlrd. so‘m</i>		<i>O‘sish sur’atlari, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2022-yil</i>	<i>2023-yil</i>	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>30 117,6</b>	<b>32 916,1</b>	<b>103,5</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo‘silgan qiymati	27 758,8	31 333,7	103,4
mahsulotlarga sof soliqlar	2 358,8	1 582,4	104,0
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo‘silgan qiymati</b>	<b>27 758,8</b>	<b>31 333,7</b>	<b>103,4</b>
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	8 252,5	9 512,7	104,1
sanoat (qurilishni qo‘silgan holda)	8 902,1	9 504,7	102,4
sanoat	6 669,5	6 964,0	101,1
qurilish	2 232,6	2 540,7	106,5
<b>xizmatlar</b>	<b>10 604,2</b>	<b>12 316,3</b>	<b>103,8</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1 399,3	1 753,1	112,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 879,9	2 158,1	107,2
boshqa xizmat tarmoqlari	7 325,0	8 405,1	101,2

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinish turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 16 545,8 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 2,1 % ga yuqoridir.

**Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi  
(ming so'mda)**



**Aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi  
(jamiga nisbatan % da)**


	2022-yil	2023-yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi	92,2	95,2
qo'shilgan qiymati		
mahsulotlarga sof soliqlar	7,8	4,8
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>29,7</b>	<b>30,4</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>32,0</b>	<b>30,3</b>
sanoat	24,0	22,2
qurilish	8,0	8,1
<b>xizmatlar</b>	<b>38,3</b>	<b>39,3</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,0	5,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,8	6,9
<b>boshqa xizmat tarmoqlari</b>	<b>26,5</b>	<b>26,8</b>

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi  
(jamiga nisbatan % da)**


2023-yilda hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 95,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,8 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 30,4 % ni, sanoat tarmog'i 22,2 % ni, qurilish 8,1 % ni va xizmatlar sohasi 39,3 % ni tashkil qildi.

**2022- yil**



**2023- yil**




**2023-yil uchun YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq  
o'sish sur'atlari**

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)


YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,1 f.p. (2022-yilda – 0,9 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,2 f.p. (2022-yilda – 0,1 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,5 f.p. (2022-yilda – 0,5 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 1,4 f.p. (2022-yilda – 2,2 f.p.) ijobjiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2022-yilda – 0,3 f.p.)ga ko'paydi.



2023-yilda YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,1 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 30,4 %), sanoatda – 101,1 % (22,2 %), qurilishda – 106,5 % (8,1 %), xizmatlar sohasida – 103,8 % ni (39,3 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 112,8 % (5,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 107,2 % (6,9 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 101,2 % dan (26,8 %) iborat bo'ldi.

**YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq  
o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)**




## YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2023- yilda YAHM deflyatori indeksi 2022- yildagi narxlarga nisbatan 105,6 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmat ko'rsatish sohasida – 111,9 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 110,7 % qayd etildi.

2022-y.

2023-y.



**Kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi  
(jamiga nisbatan %da)**

2023-yilda kichik tadbirkorlik 18 407,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi (2022-yilda – 15 483,5 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 58,7 % ni (2022-yilda – 55,8 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilga nisbatan o‘sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog‘liq.



**yalpi hududiy mahsulot (YAHM)** – ma’lum bir davr mobaynida ma’muriy-hududiy tuzilishlarda joylashgan iqtisodiy rezident-birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalovchi milliy hisoblar tizimining asosiy ko’rsatkichidir;

**yalpi ishlab chiqarish (YAICH)** – hisobot davrida rezident-birliklarning ishlab chiqarish faoliyati natijasini ifodalovchi, ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning umumiy qiymatidir;

**oraliq iste’mol (OI)** – muayyan davrda boshqa tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun sarflangan (asosiy kapital iste’moli bundan mustasno) tovarlar va bozor xizmatlari qiymatidir;

**yalpi qo’shilgan qiymat (YAQQ)** – ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar (ishlab chiqarish) qiymati va ishlab chiqarish jarayonida to’laligicha ishlatilgan tovarlar va xizmatlar (oraliq iste’mol) qiymati o’rtasidagi farq orqali aniqlanadi;

**yollanma ishchilar mehnatiga haq to’lash** – hisobot davrida bajarilgan ish uchun yollanma ishchiga ish beruvchi tomonidan to’lanadigan pul yoki natura shaklidagi to’lovlar. Mehnatga haq to’lash, qonunchilikka muvofiq soliqlar va boshqa to’lovlarni chegirmagan holda hisoblangan summa asosida hisobga olinadi;

**mahsulotlarga soliqlar** – rezidentlar tomonidan ishlab chiqarilgan, sotilgan va import qilingan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda tovar yoki xizmatning bir birligiga solinadigan soliqlardir. Ularga qo’shilgan qiymat solig‘i, aksizlar, eksport va importga soliqlar va boshqalar kiradi;

**ishlab chiqarishga boshqa soliqlar** – korxona va tashkilotlarga ishlab chiqarishdagi ishtiropi natijasida solinadigan barcha soliq turlaridan (mahsulotlarga soliqlar bundan mustasno) iborat. Ular yer va tabiiy resurslar uchun, ishlab chiqarish jarayonida foydalilaniladigan ishlab chiqarish vositalari yoki ishchi kuchi uchun, shuningdek, ma’lum bir faoliyat turlari yoki operatsiyalar bilan shug‘ullanishga ruxsat olish va boshqalar uchun to’lanishi mumkin;

**sof soliqlar** – tegishli subsidiyalar chegirib tashlangan soliqlardir;

**subsidiyalar** – davlat boshqaruvi organlari, shu jumladan norezidentlar tomonidan korxonalarga, ularning ishlab chiqarish faoliyati hajmidan yoki ular tomonidan ishlab chiqarilgan, sotilgan va import qilingan tovarlar va xizmatlarning qiymati yoki miqdoridan kelib chiqqan holda to’lanadigan beg‘araz to’lovlardir;

**mahsulotlarga subsidiyalar** – rezidentlar tomonidan ishlab chiqarilgan, sotilgan va import qilingan tovarlar va xizmatlarning miqdori va qiymatiga mutanosib tarzda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning bir birligi uchun to’lanadigan subsidiyalardir;

**ishlab chiqarishga boshqa subsidiyalar** – korxonalar tomonidan ishlab chiqarish faoliyati natijasida olinadigan subsidiyalardir (ishlab chiqarish omillaridan foydalanish bilan bog'liq subsidiyalar, masalan ishchi kuchi, ishlab chiqarish vositalari, tabiiy resurslar va boshqalar), mahsulotlarga subsidiyalar bundan mustasno;

**yalpi foyda va unga tenglashtirilgan daromadlar** -yollanma ishchilarning mehnatiga haq to'lash bilan bog'liq xarajatlar, ishlab chiqarishga va importga soʻf soliqlar chegirilgandan keyin ishlab chiqaruvchi hisobida qo'shilgan qiymatning qoladigan qismini, shuningdek uy xo'jaliklarining aralash daromadlarini, yaʼni yakka tadbirkor yoki daromad oluvchining daromadidan ajratilmaydigan, bajarilgan ish uchun olingan toʼlovlarni ifodalaydi;

**asosiy kapital iste'moli** hisobot davrida asosiy kapital qiymatining moddiy va maʼnaviy eskirishi va tasodifiy zararlanishi natijasida kamayishini ifodalaydi;

**bozor ishlab chiqarish** iqtisodiy ahamiyatga ega narxlarda, yaʼni tovarlar va xizmatlar talab va taklifiga sezilarli taʼsir qiluvchi narxlarda sotiladigan tovarlar va xizmatlar qiymatini oʼz ichiga oladi;

**nobozor ishlab chiqarish** institutsional birliklar tomonidan oʼzlarining yakuniy iste'moli uchun ishlab chiqarilgan, shuningdek, boshqa institutsional birliklarga bepul yoki iqtisodiy ahamiyatga ega boʼlmagan narxlarda taqdim etiladigan tovarlar va xizmatlar qiymatini oʼz ichiga oladi;

**sotib olish narxi** – sotib oluvchi tomonidan belgilangan vaqtida va joyga yetkazib berilgan tovar va xizmat birligi uchun toʼlanadigan narx. U tovarni yetkazib berish boʼyicha savdo-vositachilik va transport xarajatlarini, shuningdek, sotib oluvchi tomonidan toʼlanadigan mahsulotlarga soliqlarni oʼz ichiga olib, ammo mahsulotlarga subsidiyalarni va ajratilgan qo'shilgan qiymat soligʼini (QQS) oʼz ichiga olmaydi;

**YAHM fizik hajm indeksi** – oʼtgan yilning shu davr narxlari dagi joriy davr YAHMni (doimiy narxlardagi YAHM yoki real YAHM) oʼtgan yilning shu davr amaldagi narxlari dagi YAHMga nisbati kabi hisoblanadi;

**YAHM indeks-deflyatori** – hudud iqtisodiyotida narxlarning oʼrtacha oʼzgarishini ifodalaydi va nominal YAHMning (amaldagi narxlardagi joriy davr YAHM) real YAHMga nisbatini tavsiflaydi.